

SUD-HUQUQ TIZIMIDAGI KORRUPSIYA VA UNING OQIBATLARI

Berdiyorova Bahora Faxriddin qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

YURISPRUDENSIYA yo'nalishi 1-kurs talabasi

bahoraberdiyorova@gmail.com

Annotatsiya; Mazkur maqolada sud-huquq tizimidagi korruptsianing sabablari va oqibatlari, hamda uning huquqiy adolatga va jamiyatga ta'siri ko'rib chiqiladi. Hozirgi kunda keng yoyilib borayotgan jinoiy ishlar qatorida korrupsiya hamda uning bir nechta bo'g'inlar orqali amalga oshirilayotgan qabih xatti-harakatlar kun sayin ortib bormoqda. Bu esa jamiyatda davlat muassasalari hamda mansabdor shaxslarga nisbatan ishonchsizlik hissini kuchaytiradi. Shu bilan birga, bu hodisa jinoyatchilik darajasining oshishi va mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga to'sqinlik qilishi bilan xavfli ekanligi qayd etilgan. Tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasi tajribasi va xalqaro amaliyot asosida tahlil qilindi hamda ayrim sohalar tahlil qilinadi. Muammoni hal qilish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar; korrupsiya, sud-huquq tizimi, adolat, huquqiy islohotlar, jamiyat ishonchi, jinoyatchilik, xalqaro, ijtimoiy ishonch, ijtimoiy tengsizlik, noqonuniy daromad, sud mustaqilligi, xalqaro tajriba.

Kirish;

Sud-huquq tizimi davlatning asosiy ustunlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tizimidagi korrupsiya huquqiy adolatni buzadi va fuqarolarning davlat organlariga bo'lgan ishonchini yo'qotadi. O'zbekiston Respublikasi oxirgi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashishda qator islohotlarni amalga oshirmoqda. Bundan tashqari korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilganligi ham Korrupsiya hozirgi kunning dolzarb muommo ekanligini bildiradi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bir qancha qonunlar va dasturlar qabul qilindi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – sud tizimidagi korruptsianing asosiy sabablari, ularning oqibatlari va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni ilmiy asosda tahlil qilishdir.

Asosiy qism

❖ Korrupsiyaning sud-huquq tizimiga ta'siri anchayin chuqur ildiz otib ulgurgan. Sud-huquq tizimida korrupsiya O'zbekistonda ijtimoiy adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashga jiddiy to'siq bo'lib kelmoqda. Bu muammo sud qarorlarining xolisligi va ishonchliliga shubha uyg'otib, fuqarolarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini pasaytiradi. Shu sababli, so'nggi yillarda O'zbekiston hukumati korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq sohasini isloh qilish bo'yicha keng ko'lamlili chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

❖ Sud tizimida korrupsiya ko‘rinishlari: poraxo’rlik, qarorlarni noqonuniy qabul qilish, sud jarayonlarini cho‘zib yuborish, nohaq ayblov qo‘yish, dalillarni soxtalashtirish, yollanma guvoh jalg etish, muddatidan oldin jinoyatchilarni ozodlikka chiqarish va boshqa ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.

❖ Huquqiy oqibatlar: qonunchilikka bo‘lgan ishonchning yo‘qolishi, qonun ustuvorligining buzilishi, jamiyat va davlat o‘rtasidagi huquqiy aloqalarga putur yetishi, yuqori davlat organlarida malakasi yetarli bo‘lmagan kadrlarning faoliyat yuritishi, sudning holisligi va mustaqilliligiga ta’sir ko‘rsatadi.(3, p. 4)

❖ Ijtimoiy oqibatlar: fuqarolarning davlatga nisbatan noroziligi, ijtimoiy adolatsizlikning kuchayishi bundan tashqari adolat qarorlari sotiladigan mahsulatga aylanganda, oddiy fuqorolar o‘z huquqlarini himoya qilishdan voz kechishga majbur bo‘lishadi.

2. Korrupsiyaning iqtisodiy oqibatlari

❖ Davlat resurslarining samarali ishlatalmasligi. Bu jarayonda davlat mablag’larini noqonuniy o‘zlashtirilishi korrupsiyaviy bitimlar sababli jarimalar davlat bujetiga tushmasligi buning natijasida davlat iqtisodiyotiga putur yetkazilishi.

❖ Huquqiy tizimdagi korrupsiya iqtisodiy o‘sishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.Buni isboti sifatida aholi bandligini ta’minalash sohasida juda ko‘p korruption holatlarni kuzatishi mumkin. Masalan O‘zbekistonda aholi orasida ishga joylashish bo‘yicha o‘quv amaliy ishlari olib borilib, agarda turli xil korruption holatlar yuzaga keladigan bo‘lsa korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga murojaat qilishi mumkinligi haqida ogohlantirilmoqda.

3. Korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha xalqaro tajriba

Transparency International ma’lumotlariga ko‘ra, korrupsiyaga qarshi muvaffaqiyatli kurashayotgan davlatlarda sud tizimining shaffofligi ta’minlangan. Xalqaro Antikorruptsiya Konferensiyalari (masalan, 2024 yilda Litvada) orqali davlatlar, fuqarolik jamiyati va biznes sektorlarini birlashtirib, korrupsiyaga qarshi aniq choralar ishlab chiqishga e’tibor qaratiladi. Bu chora-tadbirlarga davlat boshqaruvining shaffofligini ta’minalash va fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashda ishtirokini rag‘batlantirish kiradi. Ushbu tajriba orqali bu uch kategoriya birlashtirilib kaorruptsiyaga qarshi ulkan kuchga aylanadi.(2, p. 2-3)

4. O‘zbekiston tajribasi

❖ Korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qabul qilingan qonunlar (masalan, "Korruptsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida"gi qonun). Ushbu qonun 34 moddadan iborat bo‘lib Qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yil 24-noyabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2016-yil 13-dekabrda ma’qullangan. Korruptsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun 2017-yil 3-yanvarda kuchga kirgan shu sanadan boshlab qonun ijrosini ta’minalash va nazorat funksiyalari O‘zbekiston Respublikasi

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Adliya vazirligi, Bosh prokuratura va boshqa davlat organlarining zimmasiga yuklatilgan. (1, p. 3-4) Mazkur qonunni ishlab chiqilishi Xalqaro tajriblardan foydalanilgan.

❖ Sudyalar faoliyatini baholashning yangi tizimlari ham joriy etilib bir qator islohotlar amalga oshirildi. Bunga misol tariqasida, Oliy sud qoshida Sudlar faoliyatini ta'minlash bo'yicha departament va Sudiyalar oliv kengashi tashkil qilindi va uning uning vazifasi qilib sud hokimyatining mustaqilligi kostitutsiyaviy prinsipiga rioya etilishini ta'minlashga ko'maklashish belgilandi.

❖ Sudyalar mustaqildirlar, faqat Konstitusiya va qonunga bo'ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirishga doir faoliyatiga har qanday tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi. Sudyalar muayyan ishlar bo'yicha hisobdor bo'lmaydi.

Sudyalar daxlsizdir. Davlat sudyaning va uning oila a'zolarining xavfsizligini ta'minlaydi. Sudyani muayyan ishning muhokamasidan chetlashtirishga, uning vakolatlarini bekor qilishga yoki to'xtatib turishga, boshqa lavozimga o'tkazishga faqat qonunda belgilangan tartibda va asoslarga ko'ra yo'l qo'yiladi. Sudning qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi sudyani lavozimidan ozod etish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin emas. Sudyalar senator, davlat hokimiysi vakillik organlarining deputati bo'lishi mumkin emas. Sudyalar siyosiy partiyalarning a'zosi bo'lishi, siyosiy harakatlarda ishtirok etishi, shuningdek ilmiy, ijodiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanishi mumkin emas.

❖ O'zbekistonning xalqaro reytinglarda o'rni va islohotlar samaradorligi. Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlar natijasida so'nggi yillarda korrupsiyaning aholi va davlat organlari orasida soni sezilarli darajada kamaygan. Bu esa o'z navbatida aholi va davlat o'rtaсидagi ishonchning qayta tiklanishi, qonun ustuvorligini ta'minlab bermoqda.

Tahlil va muhokama

Sud tizimidagi korrupsiyaning salbiy ta'siri faqat huquqiy adolatni buzish bilan cheklanmaydi, balki davlat boshqaruvining barcha sohalariga zarar yetkazadi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak davlat organlari tomonidan olib borilayotgan amaliy tadbirlar natijasida siyosiy holat yo barqaror yoki parokanda bo'ladi.

Biroq, korrupsiyaning oldini olish bo'yicha hozirgi islohotlar yetarli darajada samarali emas, chunki jamiyatdagi huquqiy madaniyat darajasi past. Aholi orasida agar insonlar korruption holatga duch kelsalar qanday qilib ushbu vaziyatga huquqiy yechim topish mumkinligi haqida yetarli ma'lumotga ega emas. Bu holat esa yuqori mansab egalarini ushbu holatdan mohirona foydalanish yani korruption holatlarni to'g'ridan-to'g'ri yoki turli vositachilar orqali amalga oshirish imkonini beradi. Shu sababli, quyidagi choralar zarur

1. Sud tizimida shaffoflikni oshirish.Demokratik huquqiy davlat qurishning muhim tarkibiy belgisi sud tizimining shaffofliligi va ochiqliligidir.Fuqarolar, jamoat birlashmalari, ommaviy axborot vositalari davlat organlari va mansabdar shaxslar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi mumkin shuningdek sud huquq tizimida ham.

2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish jamotachilikga sud qarorlari va qabul qilinayotgan so'nggi normativ hujjatlarni maxfiylikka riosa qilgan holda ommaga e'lon qilishni oson tarzda amalga oshirish mumkin shuningdek sud jarayonlarini onlayn kuzatib borish imkoniyatini yaratib beradi. Shuningdek elektron sud portallarini rivojlantirish bo'yicha dasturlar amalga oshirilmoqda, misol tariqasida fuqorolar o'z shikoyat va arizalarini elektron tarzda davlat organlariga topshirish mumkin.

3. Davlat xizmatchilarining javobgarligini kuchaytirish bu nafaqat sud huquq tizimi balki boshqa sohalarda ham alohida ahamiyatga ega. Agar mansabdar shaxs o'z vakolatlarini suiiste'mol qilsa, qonunchilikda aniq belgilangan javobgarlik tizimi mavjud. Agar yuqorida qayd etilgan holat yuz bersa ushbu shaxslar davlat tomonidan belgilangan moddiy yoki jinoiy javobgarlikga tortilishi haqida ogohlantirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-dekabrdagi "Sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlash hamda sud tizimida korrupsiyaning oldini olish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6127-sod farmoni sud tizimini malakali va halol pok kadrlar bilan to'ldirish, har qanday ko'rinishdagi korrupsiyaning oldini olish, sud organlarining faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, fuqarolar va tadbirdorlik subyektlarining sud hokimiyatiga bo'lgan ishonchini yanada oshiradi. Boshqacha aytganda, qonun shunday bir normativ-huquqiy hujjatki, u albatta O'zbekistobn Respublikasi oliy Majlisida yoki referendumda qabul qilinishi kerak.(4, p. 74-bet)

Xulosa va tavsiyalar

Sud-huquq tizimidagi korrupsiya davlatning barcha sohalariga ta'sir ko'rsatadi va ushbu sohani rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu muammoni hal qilish uchun quyidagilarni taklif qilamiz:

1. Sud tizimini raqamlashtirish va avtomatlashtirish deganda sud majlislarini elektron tarzda translyatsiya qilish va elektron monitoringni tashkil qilish ish holati va qabul qilingan qarorlar haqidagi ma'lumotlarga onlayn kirish imkoniyagini yaratish va bu islohotalar fuqarolarning ishonchini oshirish va odil sudlovni ta'minlash imkonini beradi.

2. Fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish bo'yich O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 9- yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" gi farmonida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi jamiyatda huquqiy ong va

huquqiy madaniyatni yuksaltirish sohasida muvofiqlashtiruvchi davlat organi qilib belgilangan va bunga qo'shimcha ravishta ma'rifiy va o'quv dasturlari ishlab chiqilgan va huquqiy bilmlar mакtab va oliv ta'lim dargohlarining o'quv dasturlariga kiritilgan. (5, p. 3-4)

3. Korrupsiyaga oid qonunchilikni kuchaytirish bo'yicha bir qancha huquqiy asoslar takomillashtirilmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun korrupsiyaning oldini olish va tegishli javobgarlikni belgilaydi.

4. Xalqaro tajribadan keng foydalangan holda O'zbekistonda Korrupsiyaga doir qonun hujjatlari qabul qilinmoqda. Transparency International tashkiloti korrupsiyaga qarshi kurashishni targ'ib qiladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (UNCAC) xalqaro huquqiy hujjat bo'lib davlatlarni korrupsiyaga qarshi kurash choralarini kuchaytirishga undaydi O'zbekiston ham ushbu hujjatning ayrim normalarini qabul qilgan. Ushbu qonun doirasida amalga oshirilgan ishlar natijasida bir qator korruption holatlar bartaraf etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;

1. O'zbekiston Respublikasi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni.
2. Transparency International tashkiloti hisobotlari, 2023 yil.
3. Xalqaro va milliy ilmiy maqolalar (keltirilgan mavzuga oid).
4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksiga sharhi , M.X. Rustambayiv Toshkent-2021.
5. Lex. Uz sayti.